

Mirzayeva Durdona
Lingvistika (koreys tili)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar f.f.n, dots. Kim.O.A

Koreys tilida frazeologizmlar va ularning madaniy jihatlari

Milliy madaniyatimizni boyishi turli xalqlarning ma'naviy boyligi va ma'naviy dunyoqarashlari bilan o'zaro bog'liq ravishda rivojlanadi. Xususan, Sharq xalqlari tilini tadqiq qilish va o'rganish, turli xalqlarning ma'naviy boyligi, ma'naviy dunyoqarashiga qo'shilishi asosida milliy madaniyatni boyishiga xizmat qiladi¹.

Bugungi kunda o'zbek tili adabiyoti matnlariga, koreys milliy taom va ichimliklarining noyob nomlanishlari yanada ko'proq kirib kelayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Koreys milliy toamlarining shu kabi nomlanishlari bizning milliyligimiz uchun umuman o'zgacha yangilik sifatida qabul qilinmoqda. Koreys milliy oshxonasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz u yerda tayyorlanadigan taomlarning bizga ma'lum va shu bilan birga umuman yot bo'lgan qo'shimcha va ziravorlarni uchratamiz. Ushbu millat taomlari boshqa xalqlar taomidan o'zining noyob ko'rinishi va ta'mi bilan ajralib turadi. Koreys taomlarining antiqa nomlanishlari hatto taomni uncha hushlamaydiganlarni ham qiziqitirmay qo'ymaydi. Ayniqsa sharq va g'arb mamlakatlari koreys taomlarining o'zgacha nomlanishlarini eshitgach bu taom haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni olishga intiladilar.

Ma'lum bir xalq mentalitetini o'rganishda frazeologizmlarning o'rnini beqiyos albatta. Negaki, frazeologizmlarda shu xalqning o'ziga xos urf-odat va madaniyati aks ettiriladi. Bilamizki, har bir xalq o'z so'zlashuv uslubiga ega. So'zlashuv jarayonida insonlar o'rtasida turli xil jargon so'zlar, iboralar, maqollar va shu kabilar ishtirok etadi. Bular orasida iboralar, ya'ni frazeologik birliklar asosiy o'rinni egallaydi. Dunyoda hech bir millat yo'qki, o'ziga xos va

¹ Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. 29-bet

mos iboralariga ega bo'lmagan. Mana shu millatlar orasida koreys xalqi ham o'zining frazeologik birliklarining son jihatidan ko'pligi bilan ajralib turadi. Koreys xalqi ham qadimdan mavjud bo'lgan, og'izdan-og'izga o'tib, sayqallashib kelayotgan o'z ibora (frazologizm)lariga egadir. Koreys tilidagi frazeologik birliklarni o'rganish jarayonida Koreya tarixi va urf-odatlariga oid juda ko'p qimmatli axborotlarga ega bo'lish mumkin.

Har bir xalqda mavjud bo'lgan frazeologik birliklar turli xil mavzularni qamrab oladi. Shulardan biri milliy taomlardir. Inson bir kunini ovqatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ovqat inson kundalik turmushining asosini tashkil qiluvchi vosita hisoblanadi. Inson salomatligi asosi asosan uning qanday ovqatlanishi va nimalar tanovvul qilishiga bog'liq. Koreys millati ham o'z milliy va mazali bo'lgan taomnomasiga ega va bu taomlar bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar ham mavjud.

Bulardan **김치(Kimchi)**, **떡(Tokk)**, **밥(Pap)**² lar koreys xalqi kundalik hayotida keng iste'mol qiladigan taom turi hisoblanadi.

김치(Kimchi)- Bu leksema koreys tilidagi boshqa leksemalardan keng qamrovligi bilan ajralib turadi³. Kimchxi leksemasining kelib chiqishi haqida ikki hil qarash mavjud bo'lib, birinchisi qadimda koreys tilida mavjud bo'lgan "dji" (tuzlangan sabzavot) so'zi, koreyaning turli viloyatlari shevasi oqibatida bora-bora "dji" so'zining "tximchxe" yoki "djimchxe", "dimchxe" bo'lib oxir oqibat "kimchi" ko'rinishini olgan deb tahmin qilinadi. Boshqalarning fikricha "kimchi" so'zi bu xitoy tilida achitilgan sabzavot ma'nosini o'zida aks ettiradigan "xam-tse" va "kam-tse" ireogliflaridagi tovushlar tizimidan bunyod bo'lgan deya tahmin qiladilar. Ta'kidlash joizki, koreys va xitoy tillaridagi bu tahminiy ifodalar bir - biridan butkul farq qiladi⁴.

²박영준,최경봉.우리말관용어사전, 서울. 2014. 201 쪽 (Pak Young Jun. Chve Gyong Bon. Koreys tilida frazeologizmlar to'plami. Yangi nashr. Seul, 2014.201 b.)

³ Никитин М.В. "Основы лингвистической теории значения". М. Высшая школа, 1988.,С58-59

⁴Life in korea: kimchi-korea's food ; Даым беквасаджон кимчи юрэ; Kim Man Jo 1997,C112.

Kimchi – leksemasi koreys madaniyatini o'zida mujassam etgan bo'lib, u uch qirollik davridan boshlab muomalaga kirgan. Aytishlaricha sabzavotlarni qishga tuzlab qo'yish odati shimoliy xitoy mamlakatidan kirib kelgan ekan⁵. Koreys kimchisi bu faqatgina taom bo'libgina qolmay balki u qaysidir ma'noni o'zida qamrab olgan falsafa hamdir. U bir vaqtning o'zida koreyaning ko'p yillik o'tmishi bilan birga uning milliy-madaniyati, xalqining tejamkorligi va mehnatsevarligi haqida dalolat beruvchi habarchi deb ham namayon bo'ladi.

Kimchi bilan bog'liq va kundalik turmushda ko'p qo'llaniladigan frazeologik birliklar:

파김치가 되다. (Piyozli kimchi tayyor bo'lmoq). Juda ham holdan toyimiq, charchamoq.

김치국부터 마시다. (Kimchi sho'rvasidan boshlab ichmoq). Hali ushalmagan ish foydasini bo'lmoq, sherigining fikrini hisobga olmasdan o'z fikri bilan ish tutish, uni fikri bilan hisoblashmasdan o'z qarori bilangina ish tutish.

Misol: 그렇게 김치국물부터 마시다가 일이 뜻대로 되지 않으면 그 절망을 어떻게 감당하려고 그러나

밥⁶- (Pap) guruch yoki arpa kabi don mahsulotlariga suv qo'shib, qaynatilib pishiriladigan taomdir. Qaysi don mahsulotidan qilinganiga qarab guruchli pap, arpali pap, tariqli pap kabi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Lekin 밥(pap)deyilganda asosan guruchli 밥(pap)ni nazarda tutishadi. 밥(pap)tanovul qilayotgan odamga qarab har xil nomlanadi. Masalan: yoshi katta insonlarga nisbatan 진지(chinji)so'zi, qirolga nisbatan 수라(sura)so'zi, qurbonlik stoliga qo'yilganda esa 메(me)so'zlari ishlatiladi. 밥(pap)ning bunday ko'p nomlarga

⁵ Ионова.Ю.В. “Формирование и характеристика корейского фонда Музея антропологии и этнографии им.Петра Великого Корейские и монгольские коллекции в собраниях МАЭ”. Л.Наука Ленинградское.отд.1987.С45

⁶ 박영준, 최경봉. 관용어사전. 1996. 60 쪽.

egaligi, uning koreys millati hayotida qanchalik chuqur o'ringa ega asosiy taom ekanligini ko'rsatadi. Koreys millati tarixida 밥(pap)ning paydo bo'lishi neolit davriga to'g'ri keladi.

밥을 먹다 (ovqat yemoq) iborasi "hayot kechirmoq, kun ko'rmoq" ma'nosini beradi. Masalan:

"그런 직업을 가지고 밥을 먹을 수 있을지 모르겠다". "Bunday kasb bilan kun ko'ra olasizmi yo'qmi bilmadim".

밥(을) 주다-(ovqat bermoq) (soat haqida) soatni burash. Masalan:

"시계가 죽었나 보다. 시간도 맞출 겸 밥 좀 줘라"-soat buzilgan ko'rinadi. Soatni to'g'rilab, burab qo'y.

밥 값도 못 하다. (ovqatga xarajat qilmoq).

밥 그릇을 축 내다. (ovqatga idish yetmasligi).

밥 맛이 떨어지다. (ovqatning ta'mi buzilmoq) kayfiyati yomon.

밥 먹듯이 하다. (ovqati maza-matrasi yo'q).

밥 숟가락을 놓다.(ovqat tayoqchasini joyiga qo'ymoq) ko'z yummoq.

밥 술이나 먹다. (guruchli kasha yemoq). Mustahkamlikni saqlamoq.

밥 알을 세다. (qaynatilgan guruch kurmagini sanamoq). Ishtahasi yo'qolib, ovqatni bazo'r yeyish.

밥 알이 곤두 서다.⁷ Teppa sochi tikka bo'lmoq.

떡⁸ (ttok) koreys milliy noni hisoblanadi. Uni tayyorlashda tarkibida kleykovina (don tarkibida bo'ladigan oqsil modda) bo'lgan guruchli, tariqli va jo'xorili kurpadan foydalaniladi. Bu mahsulot nafaqat Koreyada balki

⁷박영준 최경봉. 관용어사전. 1996. 189 쪽.

⁸ 박영준, 최경봉. 관용어사전. 1996. 115 쪽.

Koreyaning qo'shni davlatlari Xitoy va Yaponiyada ham tayyorlanadi. Lekin Koreyada 떡(ttok)yopishqoq bo'lmagan guruchdan tayyorlansa, Xitoyda undan, Yaponiyada esa bug'lab pishirilgan yopishqoq guruchdan tayyorlanadi. 돌(to'l), 환갑(hvangap), 잔치(chanji) kabi bayramlarida dasturxonda 떡(ttok)ning bo'lishi shart hisoblanadi. 떡(ttok) koreys madaniyatining turli tantanavor tadbirlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

떡을 만들다⁹ (ttok tayyorlamoq)-ishni buzmoq. Misol:

"별것도 아닌 녀석이 잘난 체만하다가 이겨 놓은 경기를 떡을 만들어 놓았다". Biror bir ishga aqli yetmaydigan bolapaqirlar o'ziga ortiqcha baho berishgani sabab yutilayotgan musobaqani beliga tepishdi (buzib qo'yishdi).

그림의 떡 (rasmdagi ttok)-amalga oshmaydigan,yoki amalga oshishi qiyin bo'lgan narsa haqida gapirganda ishlatiladi.

Misol: "그 여자는 나에게 그림의 떡이야. 일찍 포기하는게 좋아". Bu qiz man uchun bir xomxayol. Undan ertaroq voz kechganim yaxshi.

누워서 떡 먹기 (yotgan holda ttok yeyish)- biron bir ishni osongina bajarish.

Misol: "그 정도 뛰어 넘는 것은 누워서 떡 먹기이다" Bunaqa yugurib o'tish juda oson.

떡 고물이 떨어지다 (ttok qavatini buzmoq)–foйда kelmoq.

옆에서 일 좀 거들면 떡고물이라도 떨어질까 했는데 아무것도 남는 것이 없어 섭섭했다. Yonimdagilarga yordam bersam menga ham foyda tegadi deb o'ylagandim hech qanday foydasi ham tegmadi.

떡국을 먹다 (Ttokdan tayyorlangan sho'rvani ichmoq) – bir yoshga ulg'aymoq.

떡국 한 그릇 더 먹은게 무슨 위세라고 그렇게 떠 벌이고 다니는거야. Bir yoshga

⁹박영준, 최경봉. 관용어사전. 1996. 120 쪽.

ulg'aydim deb, judayam oshirib yubording.

떡국을 먹이다 (ttok sho'rvasini ichirmoq) –o'zbek tilidagi qolgan ishga qor yog'ar iborasiga to'g'ri keladi.

아무리 늦어도 연말까지는 끝낼 수 있니까 떡국 먹이는 일은 없을거야. Qanchalik kech bo'lsada bu ishni yil oxirigacha tugatib ulgurishim kerak, qolgan ishga qor yog'masa kerak-a!

떡심이 풀리다 (ttokshimni yaxshi ko'rmoq) – tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, hafsalasi pir bo'lmoq iboralariga mos keladi.

마지막 희망이 무너지자 아버지는 떡심이 풀렸는지 그 자리에 주저 앉았다. So'nggi umidi uzilgan dadamning hafsalasi pir bo'lib, joyiga asata o'tirdi.

떡을 치다 (ttokni urmoq(pishitmoq)) –ishni beliga tepmoq.

일 좀 도와 준다고 하더니 되레 떡을 쳐놓았다. Uning ishiga ozgina qarashib yuboraman degan edim, ortimdan ishni beliga tepdi.

떡이 생이다 (ttok paydo bo'lmoq) – yo'q joydan foyda kirib kelmoq.

아무 생각 없이 일을 하였는데 생각지도 않은 떡이 생겼다. Hech narsani o'ylamay ish boshlagan edim, yo'q joydan foyda keldi.

떡 주무르듯하다 (ttokni mijig'lamoq) – ko'ngliga kelganini qilmoq.

우리 반 반장은 애들을 떡 주무르듯이 한다. Bizning sinf yetakchimiz bolalarni ne ko'ylarga solmaydi (ko'ngliga kelganini qiladi).

떡(을) 해먹을집안 (ttok pishirib yeydigan oila) – notinch oila.

이런 떡 해 먹을 집안에서는 도저히 살 수 없다. Bunday notinch oilada hech ham yashab bo'lmaydi.

Bu kabi frazeologik birliklarni koreys tilida ko'plab uchratishimiz mumkin. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, o'zbek va koreys xalqlari madaniyati, axloqiy tabiati, kundalik turmushda odamlar tomonidan qo'llaniladigan iboralar

nuqtai nazaridan ham bir-biriga juda yaqin xalqlar hisoblanadi. Shu jihatdan, koreys tili milliy-madaniy boyligining uzviy tarkibiy qismi bo'lmish turg'un birikmalar, ularning o'ziga xosligini o'rganish koreys xalqi kundalik turmushi haqida tasavvur hosil qilishda har doim muhim manba bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Никитин М.В. “Основы лингвистической теории значения”. М. Высшая школа, 1988.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2001.
4. Ионова.Ю.В. “Формирование и характеристика корейского фонда Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого Корейские и монгольские коллекции в собраниях МАЭ”. Л. Наука Ленинградское.отд.1987.
5. 박영준, 최경봉. 우리말 관용어 사전, 서울. 2014. (Pak Young Jun. Chve Gyong Bon. Koreys tilida frazeologizmlar to'plami. Yangi nashr. Seul, 2014.)
6. Life in korea: kimchi-korea's food ; Даым беквасаджон кимчхи юрэ; Kim Man Jo 1997.